

**NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOL-MULK
SOLIG'INI HISOBGA OLISHNING XUSUSIYATLARI**

Yaqubova Nodira Olim

qizi TDIU 2-kurs tayanch doktoranti

n.yaqubova@tsue.uz

<https://orcid.org/0009-0000-4850-8848>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nodavlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyatida soliqlarning tutgan o'rni ahamiyati, soliq ma'murchiligi, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'ini hisoblab chiqarish tartiblari, soliq bazasi va soliq stavklarini hisoblab chiqish tartibi va soliq imtiyozlarni qo'llashning xususiyatlari to'g'risida batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, litsenziya talablari, soliqlar, mol-mulk solig'i, soliq stavkasi, soliq yuki.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari ulushi sezilarli ravishda o'sib bormoqda. Ushbu jarayonda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashning muhim vositalaridan biri sifatida, soliq munosabatlarini tartibga solish, soliq imtiyozlaridan samarali va oqilona foydalanish nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, investitsiya jozibadorligini oshirish va ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashda muhim iqtisodiy dastaklardan biri hisoblanadi. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish ijtimoiy, iqtisodiy omillarga ham bog'liq. Xususan, yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyekti sifatida faoliyatini olib borishini hisobga olsak, avvalambor, buxgalteriya va soliq munosabatlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil yakuni bo'yicha, davlat byudjetiga 247,8 trn so'm soliq va majburiy to'lovlar tushumi ta'minlandi. Bu ko'rsatich 2024 yilga nisbatan 24 foizga o'sgan bo'lib, asosiy omil soliq ma'muryatchiligida olib borilayotgan islohotlar, soliq imtiyozlarini qo'llash, raqamlashtirish va iqtisodiy faollikning oshishi ta'sir qilgan.¹

Mamlakatimizda mol-mulk solig'ining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha bir qancha iqtisodchi olimlarimiz ilmiy ishlar olib borishgan. Xususan, Q.To'xsanov mahalliy soliqlarni takomillashtirishda qonuniy asoslarni yaratish va soliq to'lovchilarni rag'batlantirishning ahamiyatini ta'kidlagan hamda, soliqlarning o'zgartirilishi va boshqaruvning shaffofligini ta'minlash zarurligini qayd etgan.²

O.Meyliyev mahalliy soliqlarni ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan baholagan, soliqlarni adolatli taqsimlash tizimini yaratish va kam daromadli guruhlarni qo'llab-quvvatlashni zarurligini ta'kidlab o'tgan.³

Ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari ham o'z navbatida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'lovchisi hisoblanadi. Soliq kodeksining 411-moddasida soliq solish obyekti to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi 80-sonli "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"dagi qaroriga ko'ra oliy ta'lim tashkilotlari uchun bir

¹ Soliq qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari.

² Q.To'xsanov. "Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati,–T.TDIU, 2023.11-.b

³ O.Meyliyev. "Mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solishni takomillashtirish", Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati T.: Moliya, 2022. 12 b.

qancha talablar belgilangan. Xususan talabalar uchun ajratiladigan umumiy yer maydonlari hajmi belgilab berilgan.⁴

Soliq kodeksining 414-moddasi⁵ birinchi qismida soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari mustasno), jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot obyektlarining; o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytirilishi belgilangan.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida mol-mulk solig'i imtiyozlarini qo'llash ta'lim sohasini rivojlantirishda muhim iqtisodiy va huquqiy vosita hisoblanadi. Bunday imtiyozlar nodavlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy yukini kamaytirish orqali ularning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi hamda mavjud resurslarni ta'lim sifati va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirish imkonini beradi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha yangiliklar natijasida oliy ta'lim tashkilotlari o'z moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy o'quv laboratoriyalari, axborot-resurs markazlari va raqamli ta'lim tizimlarini rivojlantirishga ko'proq mablag' ajratish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining oshishiga va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, mazkur imtiyozlar nodavlat oliy ta'lim sektorining investitsion jozibadorligini oshiradi hamda ta'lim xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida muvozanatli rivojlanish ta'minlanadi.

⁴ Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi 80-sonli "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"dagi qarori -lex.uz manbasi.

⁵ Soliq kodeksining 414-moddasi-lex.uz manbasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi 80-sonli “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida” to‘g‘risidagi qarori-lex.uz manbasi
2. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi 403-sonli “Respublikada nodavlat ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
3. Q.To‘xsanov. “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati,—T.TDIU, 2023.11b.
4. O.Meyliyev. “Mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solishni takomillashtirish”, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati T.: Moliya, 2022. 12 b.